

XALQARO TA’LIM STANDARTLARI ASOSIDA PSIXOLOGIYA YO’NALISHIDA KADRLAR TAYYORLASHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.

Abdurakhmonova Farangiz Iqbojon qizi
Andijon Davlat Pedagogika Instituti Magistratura
bo’limi Pedagogika va psixologiya kafedrasida
Pedagogika yo’nalishi 1- kurs magistranti
Muhammadjonovafarangiz8@gmail.com
Tel: +998(88) 994-33-03

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19417718>

Annotatsiya: Mazkur ilmiy tezisdagi psixologiya yo’nalishida yuqori malakali kadrlar tayyorlashning innovatsion yondashuvlari masalasini xalqaro ta’lim standartlari va tajribalari asosida tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim tizimida xalqaro ta’lim texnologiyalari keng qo’llanilmoqda. Tadqiqot doirasida kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion pedagogik metodlar va amaliyotga yo’naltirilgan o’quv dasturlari asosida malakali yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlashning ustuvor yo’nalishlari baholandi.

Kalit so’zlar: Xalqaro ta’lim standartlari, psixologiya ta’limi, ta’limni modernizatsiyalash, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, innovatsion pedagogik texnologiyalar, amaliyotga yo’naltirilgan o’quv dasturlari, global ta’lim tajribasi.

Kirish. Hozirgi kunda global ta’lim makonida integratsiya jarayonlari va raqamli transformatsiya psixologiya yo’nalishida malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiyalash zaruratini kuchaytirmoqda. Yuqori malakali mutaxassislar nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko’nikmalar, tajriba va kompetensiyalarga ega bo’lishi lozim. Shu nuqtai nazardan, xalqaro ta’lim standartlari va innovatsion pedagogik yondashuvlar psixologiya ta’limining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni asoslaydiki :

Xalqaro kompetensiyaviy yondashuv asosida tuzilgan o’quv dasturlari va ko’nikmalari mutaxassis kadrlarning kasbiy va amaliy ko’nikmalarini samarali shakllantiradi.

Raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish, xususan onlayn simulatsiyalar va virtual laboratoriyalar, talabalarni hayotiy vaziyatlarga tayyorlashda qo’llanilishi mumkin.

Psixologiya ta’limida xalqaro akademik mobillik va tajriba almashuv dasturlari ta’lim sifatini yaxshilash va uni global talablarga moslashtirishda muhim vosita hisoblanadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda amaliyotga yo’naltirilgan mashg’ulotlarni tizimli tashkil etish nafaqat nazariy bilimlarning chuqur o’zlashtirilishini ta’minlaydi, balki talabalarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va kasbiy qarorlar qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirib, ularning milliy va xalqaro mehnat bozorida raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Xalqaro ta’lim standartlari, xususan, American Psychological Association (APA) hamda European Federation of Psychologists' Associations (EFPA) tomonidan ishlab chiqilgan kasbiy mezonlar psixolog kadrlarni tayyorlashda nazariy bilim bilan birga amaliy kompetensiyalarni shakllantirishni strategik ahamiyatga ega muhim vazifa sifatida belgilaydi. Ushbu standartlarda psixolog kadrlarning etik mas’uliyati, tadqiqot olib borish qobiliyati, diagnostika va konsalting ko’nikmalari, shuningdek, interkultural kompetensiyalari muhim omil sifatida e’tirof etiladi. Shuningdek, interkultural kompetensiyani rivojlantirish innovatsion tayyorgarlikning ajralmas

qismidir. Turli madaniyat vakillari bilan ishlash, gender sezgirlik, inklyuziv yondashuv va ijtimoiy adolat tamoyillariga amal qilish zamonaviy psixologning professional fazilatlarini qatoriga kiradi. Bu jihatlarda xalqaro standartlarda alohida qayd etilgan.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ham psixologiya yo‘nalishida xalqaro tajribani joriy etish bo‘yicha bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan kredit-modul tizimi, akademik mobillik va xalqaro hamkorlik dasturlari kengaytirilmoqda. Bu esa psixologiya magistrilarini xalqaro mehnat bozoriga mos yetuk mutaxassis kadr sifatida tayyorlash imkonini yaratadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, psixologiya yo‘nalishida kadrlar tayyorlashni xalqaro ta’lim standartlari asosida modernizatsiya qilish quyidagi strategik yo‘nalishlarni talab etadi: kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytirish, amaliyot integratsiyasini kengaytirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, ilmiy-tadqiqot salohiyatini sifatli ravishda oshirish hamda interkultural kompetensiyani rivojlantirish. Mazkur innovatsion yondashuvlar makakali psixolog mutaxassislarning kasbiy raqobatbardoshligini oshiradi va ularni global professional makonga integratsiyalashuvini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (2020). Toshkent.
3. G‘oziev E.G‘. (2010). *Umumiy psixologiya*. Toshkent: O‘qituvchi.
4. Karimova V.M. (2015). *Pedagogik psixologiya asoslari*. Toshkent: Fan.
5. Tojiboyeva D.Q. (2017). Oliy ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish masalalari. Toshkent.
6. Musurmonova O. (2016). Ta’lim jarayonini modernizatsiyalashning nazariy asoslari. Toshkent.
7. Qodirov B. (2014). Psixolog kadrlarni tayyorlashning metodologik asoslari. Toshkent.
8. American Psychological Association (2017). *APA Guidelines for the Undergraduate Psychology Major: Version 2.0*. Washington, DC.
9. European Federation of Psychologists' Associations (2015). *EuroPsy – European Certificate in Psychology*.
10. (1984). *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. New Jersey: Prentice Hall.